

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

У.Р.Шадиев

Стратегическое планирование устойчивого развития туризма: международный опыт и рекомендации для Узбекистана	6
---	---

FALSAFA

G.G'.G'affarova

Raqamlashtirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari	15
---	----

Q.A.Pulatov

Jamiyatning huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish kontekstida sekulyar fikrlashning asosiy xususiyatlari va tarixiy shart-sharoitlari	20
---	----

J.A.Kayumov

Ijtimoiy xavfli harakatlarga moyil talabalar bilan individual ishlashda xorijiy tajribalardan foydalanish masalalari	25
--	----

K.P.Islamova

Sadriddin ayniy asarlarida jadidchilik faoliyatini jamiyat hayotiga kirib kelish shart-sharoitining yoritilishi	28
---	----

M.K.Soipova

Fazl ibn Ahmad ta'limotida jon tushunchasining falsafiy tahlili	33
---	----

O.T.Sharipova

Barkamol avlod tarbiyasida komil inson g'oyasining Xojagon ta'limoti asosidagi zamonaviy talqini	37
--	----

I.A.Suvanov

Axborot tahdidlarning namoyon bo'lishi va unga qarshi kurash zarurati	42
---	----

N.I.Hamroyev

Muhammad Abdo qarashlarida ayollar masalasi	47
---	----

A.A.Salmonov

Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy-falsafiy mazmuni	54
---	----

B.M.Madaminov

Axloqiy tarbiyada milliy qahramonlik tuyg'usini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy tahlili	59
--	----

F.S.Qosimov

Inson kapitalini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy zarurati va ahamiyati	62
--	----

J.M.Kholmuminov, D.R.Komilov

Yusuf Khas Hajib's worldview: philosophical analysis	70
--	----

X.J.Toshpo'latov

Jamiyatda viktimologik profilaktikani amalga oshirishning istiqboldagi strategik yo'nalishlari	74
--	----

M.M.Daliyeva

O'zbek xalqining adabiy merosida ekologik mas'uliyat va fidoyilik fazilatlarining analitik tahlili	78
--	----

S.X.Tolibova

Oiladagi obyektiv omillarning shaxs ma'naviy fazilatlarini shakllanishiga o'rni	81
---	----

U.M.Maniyozov

Innovatsiya tushunchasining mazmun-mohiyati, ilmiy talqinlari va ijtimoiy mohiyati	85
--	----

O.M.Karimov

Ijtimoiy-falsafiy omil sifatida mehnat erkinligi va uning insoniy taraqqiyotdagi o'rni	90
--	----

O'.M.Xamrakulov

Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishning nazariy-metodologik asoslari	93
---	----

S.X.Mukarramov

Yangi O'zbekistonda rahbar kadrlar tayyorlashda boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning konseptual va aksiologik asoslari	99
---	----

D.S.Ermatov

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy mentalitet shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarning falsafiy tahlili	103
---	-----

F.M.Abdillazov

Kambag'allik fenomenining jamiyat hayotida namoyon bo'lish shakllari va uni qisqartirish	
--	--



UO'K: 330.341:65.01

INNOVATSIYA TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI, ILMIY TALQINLARI VA IJTIMOİY MOHIYATI**СОДЕРЖАНИЕ, НАУЧНЫЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ И СОЦИАЛЬНАЯ СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЯ ИННОВАЦИИ****CONTENT, SCIENTIFIC INTERPRETATIONS AND SOCIAL ESSENCE OF THE CONCEPT OF INNOVATION****Maniyo'zov Umidjon Murodjonovich** 
mustaqil tadqiqotchi**Annotatsiya**

Mazkur maqolada innovatsiya tushunchasi, uning mazmuni va mohiyati, fanlararo tadqiq etilishi, jamiyat ijtimoiy hayotidagi ahamiyati tadqiq etilgan. Shuningdek, mazkur muammoni tahlil etishda qator Sharq va G'arb olimlarining tadqiqotlari asosida innovatsiyaning ilmiy talqinlariga kengroq to'xtalib o'tilgan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются понятие инновации, ее сущность и значимость, междисциплинарное исследование, а также значение в социальной жизни общества. Кроме того, при анализе данной проблемы широко освещены научные интерпретации инноваций на основе исследований ряда ученых Востока и Запада.

Abstract

This article examines the concept of innovation, its meaning and essence, interdisciplinary research, and its significance in the social life of society. Additionally, in analyzing this issue, the scientific interpretations of innovation based on the research of various Eastern and Western scholars have been extensively considered.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, innovatsion rivojlanish, innovatsion faoliyat, innovatsion mahsulot, innovatsiya tizim sifatida, innovatsiya jarayon sifatida, innovatsiya natija sifatida, innovatsiya turlari.

Ключевые слова: Инновация, инновационное развитие, инновационная деятельность, инновационный продукт, инновация как система, инновация как процесс, инновация как результат, виды инноваций.

Key words: Innovation, innovative development, innovative activity, innovative product, innovation as a system, innovation as a process, innovation as a result, types of innovation.

KIRISH

Hozirgi davrning global xususiyatlaridan biri innovatsion rivojlanishni ijtimoiy yangilanishning asosiy yo'nalishi sifatida tan olinishidir. Bu, ayniqsa, barcha manbalarini tabiiy resurslar, jismoniy mehnat va moliyaviy kapitaldan ilg'or texnologiyalar va jamiyatning aqliy salohiyatini to'liq jalb etishga qaratilganligida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Shu munosabat bilan mamlakatimiz oldida innovatsion rivojlanishning quyidagi murakkab vazifalar turibdi. Birinchidan, innovatsion jamiyatni barpo etish, ikkinchidan, samarali milliy innovatsion tizimni shakllantirish, uchinchidan, kuchli yuqori texnologiyali majmuani yaratish, to'rtinchidan, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, beshinchidan, ijodiy salohiyatni ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratish kabilar. Innovatsion rivojlanish O'zbekiston jamiyatini o'zgartirishning asosiy xususiyati bo'lishi lozim. Uning darajasi va yo'nalishi ijtimoiy taraqqiyotning mohiyatini belgilaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Innovatsiya bilan bog'liq tadqiqotlar turli unsurlarga asoslanganligi sababli, innovatsiyaning ta'riflash uchun qo'llaniladigan mezonlar ham farqlanadi. Shu bois innovatsiyaga turli xil ta'riflarni uchratish mumkin. Atama nuqtai nazaridan o'rganilganda, innovatsiya so'zi lotincha-innovare-so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "yangi bir narsa yaratish" ma'nosini anglatadi. Ingliz tilidagi "innovation" so'zining muqobili sifatida turk tilida "yangilik" tushunchasi qo'llanilishi kuzatiladi. Biroq bu tushuncha "innovation" orqali ifodalanganini to'liq aks ettira olmaydi. Chunki "innovation" tushunchasi mohiyatan yangi bo'lgan bir qator narsalarning ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarga olib kelishi va

muayyan foydaga aylanishini ham ifodalaydi. Ilgari “innovatsiya” so’zi asosan ilmiy-texnik sohalarda qo’llanilgan, yaratilgan ixtironi, yangilikni, ishlanmalarni olib kirish, joriy etish ma’nosini anglatgan. “Innovatsiya” lotincha bo’lib, “in” ichi, ichiga, “novatsiya” yangi, yangilik degan ma’noni anglatadi. “Innovatsiya” esa olib kirish, joriy etish, birorta yangilik kiritish, degan ma’nolarni beradi. Ba’zi manbalarda “innovatsiya obyektning oldingi taraqqiyotida bo’lmagan madaniy voqelik, o’zgarish, yangilik, faoliyat jarayonida qo’llaniladigan yangi usul, vosita, mexanizmlar, deb ta’rif beriladi. Mazkur lug’atdagi maqola muallifi V.L.Abushenko innovatsiyani madaniy voqelik sifatida talqin etadi, shuning uchun ham u diqqatini sotsiomadaniy borliqdagi o’zgarishlarga, kiritiladigan yangiliklarga qaratadi. Ammo bugun u, ya’ni innovatsiya ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, gumanitar, falsafa, ilm-fanning deyarli barcha sohalarida ishlatiladi. Uning etimologik ma’nosi o’sha, biroq har bir soha uni o’zining immanent xususiyatlari, gnoseologik maqsadlari va funksiyalariga muvofiq u yoki bu jihatlar bilan to’ldiradi. Qanday bo’lmasin innovatsiyaning talqinlari yangilik, yangilik izlash va yangilik olib kirish bilan bog’liqdir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Xo’sh, yangilik nima? Har doim ham yangilik “mutlaq yangilik”, “sof yangilik” tarzida keladimi? Yangilikda o’tmish, tajriba, an’ana bo’lmaydimi? Qaysi belgilariga ko’ra biz voqelikni yoki narsani yangilik deb ataymiz? “Sof yangilik” mavjudmi? Hayot, taraqqiyot, o’sish har doim ham yangilik in’ikosi, natijasimi? Innovatsiyaning falsafiy voqelikka (innovatsiya falsafasiga) aylanishi qanday ro’yo beradi?... Mazkur savollar bizni muammoga avvalo (ushbu paragrafda) retrospektiv, undan keyin (navbatdagi paragrafda) gnoseologik va ijtimoiy-falsafiy, nihoyat esa (uchinchi paragrafda) ijtimoiy ijodiy, amaliy faoliyat turi sifatida yondashishga undaydi. Mazkur izchil va tizimli funksional yondashuv innovatsiyani yaxlit voqelik, u mohiyatan falsafiy, ko’rinishlariga muvofiq amaliy faoliyat ekanini anglashga yordam beradi. Yangilikka va bilishga intilish insonga xos xislatlardir. Antik davrda “novum”, “noeva”, “nouveaux” (“yangi”, “yangilik”, “yangilar”) tushunchalari mavjud edi, biroq ular faylasuflar leksikasidan ilmiy tushuncha sifatida joy olgan kuzatilmaydi. Hatto Platon va Aristotel asarlarida ham ular oddiy ibora, muloqot vositasi sifatida tilga olinib o’tiladi. Chamasi u davrda yangi bilan eski, yangilik bilan eskilik, ijtimoiy borliqni yangilash masalasi hali kun tartibiga qo’yilmagan. Faylasuflar insonni, borliqni anglash bilan band bo’lganlar, shu bois ular jamiyatni yangilash mavzusini muhokama qilishdan yiroq edilar. To Yangi davrgacha, F.Bekongacha yangi, yangilanish va ularning ilm bilan bog’liq jihatlari tilga olinmaydi. Innovatsiya tushunchasining mavjud ta’riflarini chuqur o’rganish shuni ko’rsatadiki, monografiyalari, ilmiy maqolalar va o’quv adabiyotlari mualliflari bu atamaga turli xil ma’nolar yuklaydilar. Innovatsiyalarni ta’riflashda yagona yondashuvning yo’qligi haqida turli davrlarda R.A.Fatxutdinov, V.G.Medinskiy, V.I.Vinokurov va boshqa olimlar o’z fikrlarini bildirganlar. Xususan, bu muammoning mavjudligi so’nggi yillardagi ko’plab dissertatsiya tadqiqotlarida ham qayd etilmoqda.

Eng avvalo, innovatsiyalarga berilgan ta’riflardagi farqlar mualliflarning tadqiqot predmeti va obyektini tushunishdagi tafovutlar bilan bog’liq. Masalan, V.G.Medinskiy va boshqalar ko’rsatishicha, “tadqiqot obyekti va predmeti”ga qarab innovatsiyalarni quyidagicha ko’rib chiqish mumkin:

Innovatsiyani jarayon sifatida (B.Tviss, A.Koyre, I.P.Pinigs, V.Rappoport, B.Santo, V.S.Kabakov, G.M.Gvishiani, V.L. Makarov va boshqalar); tizim sifatida esa (N.I.Lapin, Y.Shumpeter); o’zgarish sifatida (F.Valenta, Y.V.Yakoves, L. Vodachek va boshqalar); natija sifatida (A.Levinson, S.D.Beshelev, F.G. Gurvich). Ta’riflarning bunday tasnifi ortiqchadek tuyulishi mumkin, chunki bir tomondan, ma’lum natijaga erishishga qaratilgan jarayon ham, biror faoliyat natijasi ham tizimlilik xususiyatlariga ega bo’lishi mumkin, boshqa tomondan esa, “o’zgarish”ni ham natija, ham o’zgarishlar jarayoni sifatida ko’rib chiqish mumkin. N.I.Lapin “yangilik kiritish yaxlit, ichki ziddiyatli va dinamik tizimdir” deb ta’kidlab, shu bilan birga innovatsiyani “yangi usullar va mahsulotlarni yaratish”, ya’ni faoliyat yoki jarayon sifatida ta’riflaydi. Chex iqtisodchisi F.Valenta innovatsiyani ishlab chiqarish mexanizmi ichki tuzilmasining yangi holatga o’tishi, ya’ni harakat yoki jarayon sifatida ta’riflaydi; Y.V.Yakoves ishlab chiqarishdagi sifat o’zgarishlari haqida yozadi; slovakiyalik iqtisodchi L.Vodachek innovatsiyani “korxona faoliyatidagi maqsadli o’zgarish” deb tushunib, uning tizimlilikini ta’kidlaydi. Nihoyat, yana shuni qo’shimcha qilish kerakki, iqtisodiy, xo’jalik sohasidagi biron-bir faoliyat yoki uning natijasi haqida gapirganda, bu faoliyat qandaydir o’zgarishlarni ifodalashi va uning natijasi dastlabki holatdan farq qilishi kerakligini ta’kidlash ortiqchadir. Chunki iqtisodiy tizimning ichki yoki tashqi muhitida, u alohida korxona, tarmoq yoki umuman mamlakat iqtisodiyoti bo’lsin, o’zgarishlarga olib kelmaydigan faoliyat iqtisodiy nuqtai nazardan ma’nosizdir. Yuqoridagilarni

FALSAFA

inobatga olgan holda, innovatsiyaga oid mavjud barcha tushunchalarni ikki guruhga ajratish mumkin: innovatsiyani muayyan faoliyatning pirovard natijasi deb tushunadigan ta'riflar va innovatsiyani muayyan pirovard natijaga erishishga qaratilgan faoliyat deb tushunadigan ta'riflar. Bunday ajratish to'liq bo'ladi. Shunday qilib, "innovatsion faoliyat" tushunchasini faoliyat va "innovatsion mahsulot" tushunchasini faoliyat natijasi sifatida tushunishda bir xillik mavjud bo'lsa, "innovatsiya" atamasi ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, "innovatsion faoliyat" atamasi bilan ifodalangan jarayonga yaqin bo'lgan obyekt yoki jarayonni, boshqalarning fikriga ko'ra esa, "innovatsion mahsulot" atamasi bilan ifodalangan obyektni anglatadi. Innovatsiyani jarayon sifatida quyidagi mualliflar ko'rib chiqadi: T.Brayan, S.V.Valdaysev, F.Valenta, L.Vodachek, M.V.Volinkina, D.M.Gvishiani, B.Santo va boshqalar. Innovatsiyani faoliyat natijasi sifatida esa V.I.Averchenkov, I.T.Balabanov, A.B.Borisov, V.V.Ivanov, S.D.Ilenkova, V.M.Anshin, L.V.Kantorovich, V.V.Kiseleva, A.B.Krutik, V.G.Medinskiy, V.L.Popov, R.A.Fatxutdinov va boshqalar ta'riflaydi. S.Beshelev va F.Gurvichning innovatsiyani "ijtimoiy ishlab chiqarishda amalga oshirilgan ilmiy yoki texnik natijaning o'zi, shuningdek, uni olish jarayoni" deb ta'riflaydigan ta'rifi "yarashtiruvchi" ko'rinadi. "Innovatsiya" tushunchasini ma'lum bir faoliyat natijasini anglatuvchi, ya'ni "innovatsion mahsulot" atamasining sinonimi sifatida ishlatish maqsadga muvofiqdir (keng ma'noda mahsulot deganda yangi texnologik, tashkiliy-iqtisodiy, ishlab chiqarish yechimlarini joriy etish natijasini ham tushunish kerak). "Innovatsiya" va "innovatsion mahsulot" atamalarining sinonimligini V.I.Averchenkov va I.T.Balabanov to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatadi. "Innovatsion faoliyat" va "innovatsion mahsulot" (yoki yuqorida ko'rsatilgan ma'noda "innovatsiya") tushunchalarini muomalaga kiritishda ham ikki yondashuvni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchi holatda innovatsion faoliyatning ta'rifi asosiy bo'lib, innovatsion mahsulot "innovatsion faoliyatning yakuniy natijasi" sifatida qaraladi. Ikkinchi yondashuv doirasida innovatsion mahsulotni aniqlash asosiy bo'lib, innovatsion faoliyat "innovatsion mahsulot yaratishga yo'naltirilgan" faoliyat sifatida e'tirof etiladi. Innovatsion faoliyatni aniqlashdan oldin innovatsiya ta'rifining birlamchiligini nazarda tutuvchi ikkinchi yondashuv asosliroq ko'rinadi. Yuqorida aytilganlarni umumlashtirib, innovatsion faoliyatni innovatsiyalarni yaratish, rivojlantirish yoki tijoratlashtirish bilan bog'liq faoliyat sifatida ta'riflash mumkin. Innovatsiya deganda esa ushbu maqolada ta'rifi shakllantiriladigan va asosiy xususiyatlari ajratib ko'rsatiladigan innovatsion mahsulot tushuniladi.

Innovatsiyalarning, ehtimol, barcha mualliflar e'tirof etadigan asosiy xususiyati shuki, ular taraqqiyot va ilmiy-texnik yangilik bilan bog'liq. A.I.Prigojin yangilikni har qanday innovatsiyaning ajralmas xususiyati deb hisoblaydi, V.A.Shvandar va V.Y.Gorfinkel ilmiy-texnik yangilikni innovatsiyalarning asosiy xususiyatlari qatoriga kiritadi, M.Xuchek esa taraqqiyot bilan bog'liqlik innovatsiyalarga nisbatan "deyarli barcha mualliflar yakdil fikrda bo'lgan yagona narsa" ekanligini ta'kidlaydi. Muammo shundaki, tadqiqot obyektni innovatsiya deb tan olish uchun yangilik darajasi qanday bo'lishi kerakligi borasida yakdillik yo'q. Bu masalada o'rganilgan ta'riflar bir-biridan juda katta farq qiladi: mutlaq yangilikdan ("Innovatsiya (yangilik kiritish)ni yangi ilmiy-texnik (texnologik), tashkiliy-iqtisodiy, ishlab chiqarish yoki boshqa yechimning birinchi amaliy qo'llanilishi sifatida ta'riflash mumkin") to'ishlanmani joriy etayotgan muayyan korxona uchun yangilikka ("U yoki bu hodisani innovatsiyaga kiritishning minimal sharti shuki, mahsulot, xizmat, ishlab chiqarish jarayoni, marketing usuli yoki tashkil etish usuli korxona uchun yangi (yoki sezilarli darajada takomillashgan) bo'lishi kerak. Innovatsiyalarga korxona tomonidan birinchi marta ishlab chiqilayotgan mahsulotlar, xizmatlar, jarayonlar va usullar ham, boshqa korxonalardan o'zlashtirilgan usullar ham kiradi". L.V.Kantorovich, undan keyin R.A.Fatxutdinov innovatsiyani yangilikni joriy etishning yakuniy natijasi deb tushunadi, ammo bu yangilikning yangilik darajasini aniqlashtirmaydi. Biroq, ta'rifda ko'rsatilgan joriy etish maqsadi - boshqaruv obyektni o'zgartirishdan shuni tushunish mumkinki, boshqaruv obyekti - korxona uchun ham, boshqaruv obyekti - umuman xalq xo'jaligi uchun ham yangi bo'lgan joriy etilgan yangilik innovatsiya bo'lishi mumkin. V.M.Anshin va A.A.Dagayev innovatsiya "birinchi amaliy qo'llash" bilan bog'liqligini ko'rsatadi, V.G.Medinskiy, Y.V.Yakoves, V.S.Rapoport innovatsion mahsulotni oldingi analogdan sifat jihatidan farqlash zarurligini ta'kidlaydi, B.V.Sazonov innovatsiya faoliyatning shakllangan tuzilmalarida tub o'zgarishlarni nazarda tutishi haqida yozadi, S.V.Valdaysev texnologiyaning o'ziga xosligini ko'rsatadi. Ba'zi mualliflar innovatsiya deganda prinsipial jihatdan yangi raqobatbardosh mahsulotni va ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi usullarini tushunsa, boshqalari, masalan, Y.L.Neymer, V.V.Kossov innovatsiyalarning nisbiy xarakterini ko'rsatadi. "Yangilik, avvalo, u joriy etilayotgan tashkilot uchun yangilikdir. Gap amaliyotga birinchi marta joriy etilayotgan ixtiro haqida ketyaptimi yoki boshqa tashkilotlar

amaliyotidan olingan va faqat shu tashkilot uchun yangilik bo'lgan predmet haqida ketyaptimi, buning ahamiyati yo'q". "U yoki bu hodisani innovatsiyaga kiritishning minimal sharti shuki, mahsulot, xizmat, ishlab chiqarish jarayoni, marketing usuli yoki tashkil etish usuli korxona uchun yangi (yoki sezilarli darajada takomillashgan) bo'lishi kerak". A.I.Prigojin yangilikni mutlaq va nisbiyga ajratadi. "Agar texnik taraqqiyotni nazarda tutadigan bo'lsak, unda hozirgacha prinsipial jihatdan noma'lum bo'lgan yangiliklar birinchi o'rinda turadi. Ular keng miqyosda amalga oshirilgan taqdirda, ulardan kelib chiqqan ko'plab yangiliklarga nisbatan tub yangiliklarga aylanadi. Mutlaq yangilik mazkur yangilikning analoglari mavjud bo'lmaganda qayd etiladi. Nisbiy yangilik bilan qiyinroq. Uning bir nechta variantlari bor. Masalan, mahalliy yangilik. Demak, yangilik allaqachon boshqa obyektlarda (tashkilotlarda, mamlakatlarda) qo'llanilgan, ammo bu yerda - birinchi marta". A.I.Prigojin, shuningdek, xususiy yangilik, shartli yangilik va samarali yangilik tushunchalarini kiritadi. "Xususiy yangilik mahsulot elementlaridan birini, tizimni joriy modernizatsiya qilish tartibida yangilashni nazarda tutadi. Buyum qandaydir bir jihatdan yangi bo'lib qoladi. Unda xususiy yangilikning to'planishi mutlaq yangilikka ega bo'lmasdan va radikal yangilikni amalga oshirmasdan uning to'liq o'zgarishiga olib kelishi mumkin".

Tarix fanlari doktori, professor A.Razzaqovning yozishicha, "iqtisodiy tafakkurning ilk irmoqlari miloddan avvalgi IV ming yillikka, Qadimgi Sharq davlatlariga borib taqaladi. Negaki, u jahon tamadduni beshigi hisoblanadi. Zero, vaqti-vaqti bilan ortga, ya'ni tarixga qarab qo'yish kerak. Ana o'sha qadim zamonlarda, natural xo'jalik, ya'ni o'z o'ziga mahsulot yetkazish zamirida ro'y bergan jarayonlarda davlatning faol ishtirok etishi sharoitida tovar-pul munosabatlari tobora kengayib bordi, davlat, jamoat va xususiy mulkning o'zaro mutanosib faoliyat yurgizishi eng dolzarb muammoga aylandi". Biz uchun muhim tomoni shundaki, iqtisodiy tafakkur, barcha tafakkur shakllari kabi, mudom izlanishga, o'zgarishga, yangilanishga mos. Agar unda shunday xislat bo'lmaganida Buyuk Ipak yo'li deyarli o'n bir asr turmagan, iqtisodiy aloqalar uzluksiz, bir biriga muvofiqlashib, integratsiyalashib savdo-sotiq madaniyatini, usullarini shakllantirmagan bo'lardi.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti va tafakkuri aholi talab va ehtiyojlari ta'sirida yangilanib, o'zgarib, transformatsiyaga uchrab turadi. Ularga ijtimoiy harakatchanlik, dinamizm xos. Harakatchanlik va dinamizm hayotga, faoliyatga, kishilar intilishlariga yangiliklar olib kiradi, ular barcha narsalarni o'zgartiradi, zamonaviylashtiradi yoki yangilaydi. Shunday ekan, kapitalistik munosabatlar yuzaga keltirgan ochiq bozor munosabatlari, iqtisodiy demokratiya sotsial innovatsiyalar omili bo'lib chiqadi.

Garvard biznes maktabi professori Kleyton Kristensen innovatsiyani marketing jarayonlari, kapital kiritish va firmani boshqarish sohalaridagi o'zgarishlar deb tushunadi. Bizning fikrimizcha, tadqiqotchi yangilik olib kirish bilan bog'liq o'zgarishni nazarda tutadi. U innovatsiyaning "muvaqqiyatli innovatsiya" va "yemiruvchi innovatsiya"larga ajratib, yangilik ham goho salbiy natijalarga olib kelishi mumkinligini yirik kompaniyalar faoliyatini tahlil qilish orqali ochib beradi. Demak, barcha innovatsiyalar ham ijobiy natijalar beravermaydi, muvaqqiyatlar keltiravermaydi. Mazkur xulosa innovatsiyalarni joriy etish jarayonlarini tahlil etishda muhim ahamiyatga ega.

AQSH prezidenti, yirik tadbirkor D.Tramp innovatsiyaga ijtimoiy falsafiy ta'rif beradi. U yozadi: "Ko'pincha yangiliklarni "innovatsiya" deb atashadi. Ko'p hollarda innovatsiya eski qismlarning ilgari bo'lmagan butunga birlashishidir". Innovatsiyani ijtimoiy hayotning barcha sohalariga tadbqiq etish MDH olimlari ishlarida, tadqiqotlarida ko'p uchraydi. Shuning uchun bugun ilmiy adabiyotlarda ssiyentik mohiyatga ega "sotsial innovatsiya", "tibbiy innovatsiya", "boshqaruv innovatsiyasi", "innovatsion turizm", "texnik innovatsiya", "moliya innovatsiyasi", "madaniyat va san'at sohasida innovatsiya", "pedagogik innovatsiya", "estetik innovatsiya", "innovatsion usullar", "innovatsion platformalar", "innovatsion darsliklar", "innovatsion ishlanmalar", "innovatsion xulq atvor" kabi ko'plab tushunchalar va iboralarga duch kelamiz.

Innovatsiyaning turli ilmiy talqinlari uning keng ijtimoiy voqelik ekanidan darak beradi. Shuning uchun ham olimlar unga turli talqinlar berishga intiladilar. MDHdagi olimlardan Y.V.Yakovets innovatsiyaga "faoliyat mahsuldirligini oshiruvchi yangi elementlar kiritish" deb ta'rif beradi. Bu bilan u faoliyatning samaradorligini oshirishga e'tiborini qaratadi. P.N.Zavlin, A.K.Kazansev va L.E.Mindeli "intellektual (ilmiy texnik) faoliyat natijalaridan foydalanish" deb hisoblaydi. Demak, mualliflar iyentellektual izlanishlar va intellektual faoliyat tarafdorlaridir. F.F.Bezdudniy, G.A.Smirnova, O.D.Nechayeva "yangi g'oyani amalga oshirish jarayoni", deb ko'rsatadilar. Bu jarayon bozorda ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiluvchi va iqtisodiy samara beruvchi voqelikdir. S.V.Ildemenov, A.S.Ildemenov va V.P.Vorobyev, innovatsiya korxona faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi kompleksli jarayon, deb yozishadi. Ular

FALSAFA

kompleksli jarayon deganda innovatsion g'oya, investitsiyalash, amaliyotga joriy etish. samaradorligini hisob-kitob qilish, deb tushunishadi. A.I.Anshin, A.A.Dagayev, yangi ilmiy-texnik kashfiyotlarning "amalda birinchi marta qo'llanilishi" deb biladi. Birinchi marta qo'llanilishini ular innovatsiyaning belgisi deb qabul qiladilar. L.M.Goxberg innovatsiyani "yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon ko'rinishida namoyon bo'ladigan yakuniy natijasi", R.A.Faxrutdinov "yangilik kiritishning yakuniy bosqichi", A.B.Titov esa "samaralar beradigan, tamomila yangi yoki modifikatsiya qilingan vosita (yangilik) yaratish va o'zlashtirish (joriy qilish) yakuniy natijasi", deb biladi.

XULOSA

Demak, bugun ijtimoiy borliqda, inson va jamiyatlar hayotida yangilanishga yo'naltirilgan chuqur o'zgarishlar sodir bo'lmoqda, insoniyat o'z ekzistensial borlig'ini yangicha tashkil etish va yuksaltirishga intilmoqda. Shu nuqtai nazardan innovatsiya tushunchasining asl mazmunini o'rganish, uning jamiyat hayotidagi ijobiy aspektlarini tahlil qilish oldimizda turgan asosiy muammolardan bo'lib hisoblanadi. Chunki, innovatsion va modernizatsion taraqqiyot obyektiv ehtiyoj sifatida global tafakkurni shakllantiradi, bu tafakkur esa tinmay izlanishga, yangilik izlashga, ijtimoiy ongni yangi-yangi paradigmalar, modellar va arxitonika yaratishga, topishga undamoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Berry L. L., Parasuraman A. Marketing Services. Competing Through Quality. - N. Y. Free Press, 1991;
2. Аверченков В.И. Инновационный менеджмент: учеб. пособие. – 2-е изд. – М.: Флинта: МПСИ, 2008. – 280 с.
3. Автономов В.С. Человек в зеркале экономической теории. – Москва: РАН ИМЭ, Наука, 1993;
4. Балабанов И.Т. Инновационный менеджмент. – СПб.: Питер, 2001. – 304 с.
5. Барютин Л.С. Управление техническими нововведениями в промышленности. – Ленинград: Изд. ЛГУ, 10986;
6. Бешелев С.Д., Гурвич Ф.Г. Нововведения и мы. – М.: Наука, 1990. – 62 с.
7. Валдайцев С.В. Оценка бизнеса и инновации: моногр. – М.: Филинь, 1997. – 336 с.
8. Винокуров В.И. Основные термины и определения в сфере инноваций // Инновации. 2005. №4.
9. Гекторн Т.Ф. Тайные общества всех времен и народов. - Тошкент: Шарк, 1992.
10. Головач Л.Г., Краюхин Г.А., Шайбакова Л.Ф. Регулирование инновационных процессов в регионе. – СПб.: Питер, 1997;
11. Гулямов С.С., Очилов И.С., Ганиходжаев С.О. Ўзбекистон иқтисодий тиниш ўсиш ва барқарор ривожланиш омиллари. Билимга таянган инновацион тараққиёт. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2016;
12. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии. – Москва: Наука, 1991. С.43.
13. Ермасов С.В. Финансовое стимулирование инновационной деятельности. – СПб.: СПЭА, 1997;
14. Инновационный менеджмент: Концепции, многоуровневые стратегии и механизмы инновационного развития: учеб. пособие / под ред. В.М. Аньшина, А.А. Дагаева. – 2-е изд., перераб., доп. – М.: Дело, 2006. – С.19.
15. Инновационный менеджмент: учеб. / под ред. проф. В.А. Швандара, проф. В.Я. Горфинкеля. – М.: Вуз. учебник, 2004. – 382 с.
16. Клейтон М.Кристенсен. Дилемма инноватора. Как из-за новых технологий погибают сильные компании. Перевод с англ. 7-е изд. - Москва: Альпина, 2018. С.13.
17. Кокурин Д.И. Инновационная деятельность. – Москва: Экзамен, 2001;
18. Котлер Ф., Келлер К.Л. Маркетинг менеджмент. Экспресс курс. 3-е изд. СПб.: - Питер, 2008. С.275.
19. Макарова И.В. Предпринимательство: стимулирование инновационного поведения. – Екатеринбург, ЕГУ, 1997;